

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА НОАН'АНАВИЙ О'YINLARDAN FOYDALANISH

*Maysara Irgasheva Isroilovna
Samarqand viloyati Payariq tumani
29-son DMTT direktori
maysaraирgasheva@gmail.com*

Annotation

Mazkur maqola maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni har tomonlama rivojlanirishda noan'anaviy o'yinlarning ahamiyati haqida

Эта статья о важности нетрадиционных игр в комплексном развитии детей дошкольного возраста.

This article is about the importance of non-traditional games in the comprehensive development of children in preschools.

Kalit so'zlar: Bola, o'yin, rivojlanish, maktabgacha ta'lism

Ребёнок, игра, развитие, дошкольное образование

Child, game, development, preschool education

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lism berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lism jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni, uzlusiz ta'lism tizimi xodimlari, murabbiy-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lism texnologiyalarini mohiyatidan xabardorliklari hamda ta'lism jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lism jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish va havaslari bevosita o'yinda ifodalanadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bu o'yindir. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi. Hayotiy faollik yaratiladi. Bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi.

Shuning uchun ham atoqli pedagog va shifokor **E.A.Arkin¹** o'yinni "**Ruhiy vitamin**" deb ataydi. O'yin ta'lism va mashg`ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog`liq bo'lib, juda katta ta'limi - tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'yinda aks ettirilgan narsani bilib olishga qiziqish uyg`onadi, ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrlarini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. O'yin orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bola uchun ermak, quvonch manbai bo'libgina

qolmay, bola diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan keyingi hayotida muhim o'rinni tutadi. O'yin jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o'stiradilar.



K.D.Ushinskiy¹ “Bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotdan olgan taasurotlari bilan belgilanib, ular shaxsining shakllanishiga ta'sir etadi”.

Bu fikrni **P.F.Lesgaft¹** ham tasdiqlab, “Bolalar o'z o'yinlarida tevarak atrofdan olgan taasurotlarini aks ettiradilar” deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. O'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir. O'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. O'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyatdir. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir – biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatib uning qiziqishlarini, tevarak–atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatdan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Noan'anaviy o'yinlarni qiyosan bir necha mustaqil guruhlarga ajratish mumkin:

Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko'ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

¹ P.Yusupova “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” T.. “O`qituvchi” nashriyoti, 1993

Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay olishlari, ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak)ni bilishlari lozim.



Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning o'lchami bo'yicha terib chiqishni biladilar, 8-10 ta tayoqcha, doiracha yoki boshqa bir xil turdag'i kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo'yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3 xil o'lchamda nomini ayta oladilar (uzunlik, kenglik, balandlik).



Diqqatni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatining turg'unligi, ko'chuvchanligi, bo'linuvchanligi kabi xususiyatlari shakllantiriladi. Diqqatning bo'linuvchanligi bir vaqtning o'zida kishining ikki yoki undan ko'proq narsa bilan shug`ullana olishida namoyon bo'ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar 6-7 ta narsa o'rtasida diqqatni taqsimlay oladilar. Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta-sekin ixtiyoriy diqqatga o'tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o'zi uchun qiziq bo'lmanan faoliyat bilan shug`ullana olishini nazarda tutadi.

Xotirani o'stirishga qaratilgan o'yinlarga katta maktabgacha yoshdagi bola o'z oldiga maqsad qo'ya oladi, biror narsani eslab qolish, ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir.

Tafakkurni o'stirishga qaratilgan o'yinlardan maqsad bolalarda obrazli, harakatli, ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy tafakkur turlarini rivojlantirishdan iborat. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarda mantiqiy tafakkur elementlari shakllana boshlaydi, ya'ni ular xulosalar qila oladilar, mantiq qonunlariga ko'ra fikrlaydilar. Bola ijodiy qobiliyatining o'sishi deganda tasavvur-xayolning taraqqiyoti va noan'anaviy tafakkur qila olish tushuniladi. O'yinda ijodiy xayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi.

"Bu erda nima ortiqcha" o'yini

Bu o'yin 4-5 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan. Bu o'yin bolalarning obrazli, so'z-mantiqli tafakkur protsessining analizi, aqliy va umumlashtirish operatsiyalarini tadqiq qiladi. O'yinda bolalarga har xil predmetlar tasvirlangan rasmlar tavsiya qilinadi va quyidagi ko'rsatmalar beriladi: "Har bir rasmda tasvirlangan predmetlardan biri ortiqcha. Diqqat bilan rasmga qarab, qaysi bir predmet ortiqcha va nima uchun ortiqcha ekanligini tushuntirib ber".

Topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.

Natijalarni baholash: 10-ball – bola o'ziga berilgan topshiriqni 1 daqiqadan kam vaqtida bajarib, har bir rasmdagi ortiqcha predmetni nima uchun ortiqcha ekanligini sharhlab bera olsa;

8-9 ball – bola topshiriqni 1 daqiqadan 1.5 daqiqa gacha to'g'ri bajara olsa;


6-7 ball – bola topshiriqni 1.5 daqiqadan 2 daqiqa gacha to'g'ri bajara olsa;


4-5 ball – bola topshiriqni 2 daqiqadan 2.5 daqiqa gacha to'g'ri bajara olsa;

2-3 ball – bola topshiriqni 2.5 daqiqadan 3 daqiqa gacha to'g'ri bajara olsa;

0-1 ball – bola 3 daqiqa mobaynida topshiriqni to'g'ri bajara olmasa.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa: 10 – ball – Juda yuqori, 8-9 ball – Yuqori, 4-7 ball – O'rtacha, 2-3 ball – Past, 0-1 ball – Juda past





«Yil fasllari» o'yini

Bu o'yin 3-4 yoshli bolalar uchun moljallangan. Bolaga rasm ko'rsatiladi va ushbu rasmlarga diqqat bilan qarab, rasmning har bir qismida yilning qaysi fasllari tasvirlanganligi haqida so'raladi. Topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu berilgan vaqt mobaynida bola nafaqat yil fasllarini aytib berishi, balki fasllarning belgilarini ko'rsatib bera olishi va ushbu qism aynan mana shu faslga tegishli ekanligini asoslab berishi kerak.

Natijalarni baholash: 10-ball – berilgan vaqt mobaynida bola rasmdagi yil fasllarini bir-biri bilan bog`liq holda to'g`ri aytib bera olsa va har bir yil faslining ikkitadan belgisini ko'rsatib bera olsa (jami har bir yil faslining 8 ta belgisini ko'rsatib);

8-9 ball – bola rasmdagi har bir yil fasllarini bir – biriga bog`liq holda to'g`ri aytib bersa va yil fasllarining umumiy olganda 5-7 tagacha belgisini to'g`ri ko'rsatib bera olsa;

6-7 ball – bola yil fasllarini to'g`ri aniqlab, ammo o'z fikrini tasdiqlovchi jami 3-4 ta fasllar belgisini ko'rsata olsa;

4-5 ball – bola yil fasllarining faqat 2 tasini aniqlab bera olsa va o'z fikrini tasdiqlovchi jami 1-2 tagacha yil fasllari belgisini ko'rsatib bera olsa;

0-1 ball – bola yil fasllarining birortasini ham to'g`ri aniqlay olmasa va birorta ham fasl belgisini ko'rsatib bera olmasa (ushbu ballar bolaning yil fasllarini topishga harakat qilganligiga bog`liq holda qo'yiladi).

Taraqqiyot darajasiga xulosa chiqarish: 10 ball – Juda yuqori,

8-9 ball – Yuqori, 6-7 ball – O'rtacha, 4-5 ball – Past, 0-3 ball – Juda past



Maktabga tayyorlashga yordam beradigan o'yinlar orqali bolajonlarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutqning tahlili bilan tanishtirish, bola qo'lini yozuv

malakasini egallahsga tayyorlash ishlari olib boriladi. Noan`anaviy o'yinlarni maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tashkil etishda, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos o'yinlarni taklif etish kerak. Shu maqsadda noan`anaviy o'yinlarni uch yoshli bolalar uchun o'yinlar; to'rt-besh yoshli bolalar uchun o'yinlar; olti yoshli bolalar uchun mo'ljallangan o'yinlarga ajratish mumkin.

Bolalarni diqqatini rivojlantirishga qaratilgan noan`anaviy o'yinlardan birini keltirib o'tamiz: (3 yoshli bolalar uchun)

Narsalarni taqqoslang. Bolaning oldiga ikkita o'yinchoq qo'yiladi. Bola avval ular nimasi bilan bir - biriga o`xshashligini, keyin o'zaro farqini aytib berishi kerak. Masalan: ayiq va quyoncha bir-biriga yumshoqligi bilan o`xshaydi, ularning qo'l oyoqlari, ko'z, quloqlari bor. Farqi shundaki, ayiq-katta, quyon-kichkina. Ayiq-jigarrang, quyon-oq va hokazo. Belgilarni bolalar bilan galma-galdan aytish mumkin. Shu tarzda har qanday juft o'yinchoqni taqqoslash mumkin. Agar o'yinni murakkablashtirish lozim bo`lsa, bir-biriga ancha o`xshaydigan o'yinchoqlarni taklif qilish mumkin (2 ta mashina, 2 ta to`p).



Deyarli har bir o'yin uchun uni o'tkazishning soddaroq yoki murakkabroq ko'rinishlaridan foydalanish mumkin. Shu sababli bola bilan o'yin tashkil etishda uning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Agar bola topshiriqlarni bajarishga qiyalmasa, unga birmuncha murakkabroq topshiriq beriladi, agar qiyalsa, soddaroq topshiriq berish lozim. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi. O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. O'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. O'yin bolalarga ta'lif – tarbiya berishning metod va usulidir. O'yin jarayonida bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiylashtirish maqsad, unga erishishdagi umumiylashtirish kechinmalar birlashtiradi. O'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalaydi. O'yinda aqliy va axloqiy, estetik sifatlar shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug`vor orzular va intilishlarni, sog`lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'yinda bola o'z xulqini boshqarishga, qiyinchilikni yengishga, o'z maqsadiga qat'iy turib yetishishga o'rganadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'yin bola hayotining asosiy faoliyati, o'yin bolaga quvonch va zavq bag`ishlaydi, o'yin davomida bola ham rivojlanadi, ham o'rganadi. O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Maktabgacha yoshdagagi bolaning o'yin

faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. P. Yusupova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent. 1993 yil
2. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" Toshkent. 2018 yil
3. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2018 yil
4. OAV. www.ziyonet.uz
5. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" O'quv qo'llanma, Toshkent 2012 yil